



NAVOIY VILOYATI NUROTA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 23-oktabr

144-5-74-F/25

Nurota tumani hokimligi

1. **Vafojev Shuxrat Komilovich** - tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosariga Nurota tuman prokuraturasining 2025-yil 22-sentabrdagi "Intizomiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida"gi qarori va 2025-yil 30-sentabrdagi "Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida"gi 9/9-1-25-sonli taqdimnomasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-maydagi "Tog'li va cho'l hududlarda turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 383-sonli qarori va 2022-yil 6-iyuldagi "Bolalar masalalari bo'yicha milliy komissiya to'g'risidagi nizomni va Bolalar masalalari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida"gi 363-son qarori hamda sohalarga oid boshqa qonun hujjatlari ijrosini ta'minlashda o'ziga yuklatilgan vazifalarni lozim darajada bajarmaganligi hamda ishda yo'l qo'ygan kamchiliklari uchun, "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 46-moddasi ikkinchi qismi birinchi xatboshisi va 47-moddasiga asosan **"hayfsan"** intizomiy jazo chorasi qo'llanilsin.

2. Ushbu farmoyishning ijrosini ta'minlash hokimlikning tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari Z.Boboyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



A.Fayziyev